

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

IBRAGIMOV BOBIR MANSUROVICH

**KOMPYUTER DASTURLARI VOSITASIDA BO‘LAJAK MUSIQA
O‘QITUVCHILARINING KASBIY MALAKALARINI
TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiq ta’limi)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Ibragimov Bobir Mansurovich

Компьютер dasturlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirish metodikasi 3

Ибрагимов Бобир Мансурович

Методика совершенствования профессиональных компетенций будущих учителей музыки посредством компьютерных программ 25

Ibragimov Bobir Mansurovich

Methodology for enhancing the professional skills of future music teachers through computer programs..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of publication 53

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

IBRAGIMOV BOBIR MANSUROVICH

**KOMPYUTER DASTURLARI VOSITASIDA BO‘LAJAK MUSIQA
O‘QITUVCHILARINING KASBIY MALAKALARINI
TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiqa ta’limi)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8187 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch filda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.dsmi.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Fanjiyev Qurboniyoz Berdiyevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponenlar:

Shodiyeva Matiyuba Jo'rayevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yuldoshev Umidjon Yuldoshevich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 5-mart soat 14.00dagi majlisida bo'lib o'tadi: (manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127 "A"-uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (36 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127 "A"-uy. Tel.: (+99871) 230-28-58; faks: (+99871) 230-28-15.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 20-fevral kuni tarqatildi.

(2026-yil 20-fevraldagi 3-raqamli reyestr bayonnomasi).



M.T.Tulyaxodjayeva
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

J.A.Mamatqosimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kofibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori(PhD), professor

A.A.Umarov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon musiqa ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarga ega bo'lgan, umumiy, kasbiy, pedagogik, musiqiy pedagogika bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar tajribasini umumlashtira oladigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlanmoqda. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kompyuter dasturlari vositasi orqali kasbiy malakalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini ta'minlash, musiqiy kompyuter dasturlarini o'rgatish tamoyili asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining mustaqil fikrlashi takomillashtirilmogda. Faoliyatning samarali yo'llari va usullarini topib, ularni o'quv jarayoniga joriy eta oladigan bo'lajak musiqa o'qituvchisini tayyorlash sifatining ma'lum standartini belgilab beruvchi uslubiy ta'minlash nuqtayi nazaridan ham zamonaviy talablarga javob beradigan innovatsion faoliyat komponentlarini aniqlash, samarali o'qitish usullari va o'quv jarayonida qo'llaniladigan texnik jihozlar bilan ta'minlash borasida samarali pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilmiy tadqiqot muassasalarida musiqa ta'limi sohasidagi bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy malakalarini kompyuter nota muharriri dasturlari vositasida takomillashtirish, bitiruvchilarning yanada kasbiy malakalarini oshirishda musiqa sohasida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish asosida samarali yechimlarini topish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bo'lajak musiqa o'qituvchisining dars mashg'ulotlarda kompyuter dasturlaridan foydalanishi, boshqa zamonaviy texnologiyalar bilan bir qatorda, musiqa asarlarining nota muharriri elektron shakli, partituralar yaratishda raqamli musiqa texnologiyalaridan (audio muharrirlar, audiostansiyalar va musiqa muharrirlari) foydalanishning pedagogik tizimi ishlab chiqilmoqda. Kompyuter dasturlari vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirish metodikasi va uning didaktik tizimini takomillashtirish masalalari dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Respublika oliy ta'lim muassasalari musiqa ta'limi tizimida elektron ta'limdan foydalanishning huquqiy asoslari takomillashtirilmoqda. "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish"¹ kabi muhim vazifalar dasturulamal sifatida xizmat qilmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonida kompyuter dasturlaridan foydalanish o'qituvchi kasbi standartiga muvofiq bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasb faoliyati talablariga kiritilgan bo'lib, ushbu jarayon bo'yicha qator ilmiy-tadqiqot ishlar ustuvorlik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risidagi"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son.

PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmolarni, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-391-son “Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi 287-son “O‘zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublika oliy ta‘lim muassasalarida musiqa san‘ati va ta‘limi bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlashning dolzarb muammolari musiqashunos olimlardan hamda dissertatsiya mazmun-mohiyatiga molik ta‘lim tizmiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o‘qitish sifatini takomillashtirish, masofali o‘qitish texnologiyasi, elektron ta‘limning istiqboli, rivojlanish bosqichlari va uning o‘quv-metodik ta‘minotini yaratish masalari bo‘yicha respublika, hamdo‘stlik mamlakatlari va xorijiy olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlar bajarilgan. Jumladan, musiqa san‘ati va ta‘limi sohasida R.S.Abdullayev, M.Alaviya, O.A.Ibrohimov, F.M.Karomatov, O.R.Matyoqubov, D.M.Mullajonov, A.F.Nazarov, J.K.Rasultayev, A.R.Tashmatova, N.M.Turg‘unova, G‘.M.Xudoyev, R.Y.Yunusov, T.B.G‘ofurbekov²; bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy-kompetentligini takomillashtirish masalari bo‘yicha pedagog olimlar F.X.Ibragimova, N.S.Kiyamov, N.A.Muslimov, Sh.A.Mustafoev,

² Абдуллаев Р.С. Обрядовая музыка народов Центральной Азии: Дисс. ... док. искус. – Ташкент: Института искусствознания АН РУз. 1996. – 242 с.; Alaviya I.A. O‘zbek xalq marosim qo‘shiq-lari. – Toshkent: Fan, 1974. – 221 b.; Ibrohimov O.A. O‘zbek xalq musiqa ijodi (metodik tavsiyalar 1-qism). – Toshkent: Ibn-Sino, 1994. – 62 b.; Karomatov F.M. O‘zbek cholg‘ulari musiqasi. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1972. – 86 b.; Matyoqubov O.R. Og‘zaki an‘anadagi professional musiqa asoslariga kirish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – 64 b.; Mullajonov D.M. 1990 yillar O‘zbek musiqiy estradasida ohang muammosi: San. fan. nom. dis. – Toshkent: O‘zR FA San‘atshunoslik instituti, 2003. – 151 b.; Nazarov A. Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1995. – 131 b.; Расултаев Ж.К. Узбекская традиционная инструментально-исполнительская культура: Дисс. ... док. искус. – Ташкент: Института искусствознания АН РУз. 2004. – 260 с.; Ташматова А.Р. Проблемы формирования и развития оркестрового исполнительства на народных (реконструированных) инструментах в Узбекистане: Дисс. ... канд. искус. наук. – Ташкент: Института искусствознания АН РУз, 1998. – 140 с.; Turg‘unova N.M. Namangan yallachilik san‘ati an‘analari: San. fan. fal. dok. dis. – Toshkent: O‘zR FA San‘atshunoslik instituti, 2018. – 120 b.; Xudoyev G‘.M. Buxoro mumtoz musiqa an‘analari: San. fan. fal. dok. dis. – Toshkent: O‘zR FA San‘atshunoslik instituti, 2018. – 160 b.; Yunusov R.Yu. O‘zbek maqomlari. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 83 b.; G‘ofurbekov T.B. Bastakorlik ijodiyoti: tarixi, tahlili taqdiri. – Toshkent: Muharrir o‘qituvchi, 1994. – 224 b.

X.N.Nurmatov, Q.B.Panjiyev, X.Sh.Qodirov, O.A.Qo‘ysinov, D.N.Ro‘ziyeva, F.N.Xalilov³; Veb texnologiyalari asosida ta’lim jarayonini tashkil qilish muammolari bo‘yicha A.A.Abduqodirov, S.S.Adilova, S.K.Annamuratova, U.Sh.Begimqulov, S.M.Jumaboyev, N.A.Kayumova, D.N.Mamatov, M.E.Mamarajabov, R.A.Mavlonova, M.B.Niyozov, A.X.Pardayev, O‘.Q.Tolipov, D.E.Toshtemirov, N.Q.Umurov, N.S.Xaytullayeva, Z.M.Xudayberdiyev, U.Y.Yuldashev⁴ va boshqa bir qancha olimlar tadqiqotlar olib borgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligida musiqa fani o‘qituvchilarini musiqa san’ati turlari asosida o‘qitish, ularni kasbiy va ijrochilik kompetensiyalarini yanada takomillashtirish masalari E.B.Abdullin, A.D.Alekseyev, O.O.Asriyeva, O.A.Blox, Y.E.Bodina, K.Sh.Dushaliyev, V.I.Gorlinskiy, Sh.Gulliyev, B.D.Kokumbayeva, V.S.Lednev, I.A.Lizanets, M.V.Moiseyeva, A.N.Nizamov, S.P.Polozov, N.A.Terentyeva, N.V.Vasilyeva, M.B.Xarionovskaya, A.A.Xotensev,

³ Ibragimova F.X Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini angliya madaniyatiga qiziqishlarini shakllantirish orqali takomillashtirish: Ped. fan. fal. dok. avtoref. – Toshkent, 2018. – 44 b.; Kiyamov N.S. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida musiqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. dok. dis. – Samarqand: SamDU, 2020. – 237 b.; Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. dis. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2007.; Mustafoyev Sh.A. Globallashuv sharoitida talabalarni g‘oyaviy-estetik tarbiyalash texnologiyasi (Badiiy to‘garaklar faoliyati misolida): Ped. fan. fal. dok. dis. – Samarqand: SamDU, 2018. – 175 b.; Hурmatov X. Педагогическая основа формирования музыкально-эстетической культуры младших школьников Узбекистана. Автореф. дисс. док. пед. наук. – Ташкент: ТГПУ, 1994. – 53 с.; Panjiyev Q.B. O‘zbek xalq qo‘shiqlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Ped. fan. dok. dis. – Toshkent: TDPU, 2022. – 248 b.; Qodirov X.Sh. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarida mediakompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi: Ped. fan. dok. dis. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2020. – 47 b.; Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondoshuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. Ped. fan. dok. dis. – Toshkent: TDPU, 2019. – 237 b.; Ro‘ziyeva D.N. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. dis. – Toshkent: TDPU, 2007. – 254 b.; Халилов Ф.Н. Дидактические основы инструментально-исполнительский подготовки будущих учителей музыки: Дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент: ТГПУ, 2006. – 266 с.

⁴ Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta’lim muassasalarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. – Guliston: Universitet, 2019. – 232 b.; Adilova S.S. Multimedia va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash. – Toshkent: TDPU, 2001. – № 2. – B.20-21.; Аннамурагова С. Педагогические основы художественно-эстетического воспитания старшеклассников во внеклассной работе: Дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент: ТГПИ, 1991. – 427 с.; Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axboratlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. dis. – Toshkent: TDPU, 2007. – 159 b.; Jumaboyev S.M. Ta’limda interaktiv resurslar bilan ishlash: ta’limda portal texnologiyalar // Новости образования: исследование в XXI веке. 2023. – № 6 (100). – С. 24-28.; Kayumova N.A. Oliy ta’limda elektron ta’lim muhitini tashkil etishda yangi texnologiyalar // Zamonaviy ta’lim, 2021, – № 2 (99). – B. 48-51.; Mamatov D.N. Elektron axborot ta’lim muhitida kasbiy ta’lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish: Fal. fan. dok. dis. – Toshkent: TDPU, 2017. – 185 b.; Mamarajabov M.E. Raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish: Ped. fan. dok. dis. – Toshkent: TDPU, 2022. – 165 b.; Mavlonova R.A. Boshlang‘ich talimning integratsiyalashgan pedagogikasi (metodik qo‘llanma). – Toshkent: Fan, 2005. – 192 b.; Niyozov M.B., Islikov S.X., Normatova M.N. O‘quv jarayonida elektron ta’lim resurslaridan foydalanishning afzalliklari // Polish science journal. – Warsaw: Sp.zo.o. "iScience", 2021. Part 2. – P. 134-138.; Pardayev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2009. – 146 b.; Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umum mehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Ped. fan. dok. dis. – Toshkent: TDPU, 2004. – 314 b.; Toshtemirov D.E. Ta’lim jarayonida veb texnologiyalarning o‘rni // Pedagogik tadqiqotlar. 2020. – № 2 (46). – B. 11-16.; Umurov N.Q. SIBELIUS 4, SIBELIUS 6 nota muharrirlarida ishlash masalalari. (O‘quv qo‘llanma) – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 96 b.; Xaytullaeva N.S. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini metodik tayyorlash tizimida veb texnologiyalardan foydalanish: Ped. fan. fal. dok. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2019. – 46 b.; Xudayberdiyev M.Z. O‘quv jarayonida elektron ta’lim muhitidan foydalanishning nazariy asoslari // Science and innovation. Volume 2, issue 11. November 2023, – P. 235-237.; Yuldashev U.Yu. Milliy maqom asoslari asosida bo‘lajak musiqiy o‘qituvchisining ijodiy tafakkurini rivojlantirish: Ped. fan. fal. dok. dis. – Toshkent: TDPU, 2020. – 148 b.

A.A.Yermekbayev, M.S.Zalivadniy⁵ kabilar tomondan tadqiq etilgan. Hamdo'stlik mamlakatlarida kabi olimlarning tadqiqot ishlarida elektron ta'lim muhitini shakllantirish, veb texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish muammolari o'rganilgan.

Xorijiy olimlardan Allison Druin and Solomon Cynthia, Burrows Terry, R.T.Dean, Dowsett Janet, Doornbusch Paul, J.Drecksler and Q.Harle, Gorges Peter and Merck Alex, T.Langhorst, Nicholas Haines, G.D.Peters, W.Rollin and A.Thaler, Choksy Lois, Abramson Robert M, Gillespie Avon E., Woods David, York Frank⁶ kabilar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Pedagogik yo'nalishlar

⁵ Абдуллин Э.Б. Содержание и организация методологической подготовки учителя музыки в системе высшего педагогического образования: Дисс. ... док. пед. наук. – Москва: Академия, 1991. – 375 с.; Алексеев А.Д. Методика обучения игре на фортепиано. Переизданий. – Москва: Планета музыки, 2023. – 280 с.; Асриева О.О. Музыкально-эстетическое воспитание обучающихся на ступени основного общего образования: Дисс. ... док. пед. наук. – Омск: ОГПУ, 2020. – 228 с.; Блох О.А. Развитие духовно-творческого потенциала учащихся музыкантов: Дисс. ... док. пед. наук. – Москва: МГУ, 2004. – 625 с.; Бодина Е.А. Воспитательная функция музыки: эволюция и современные тенденции: Дисс. ... док. пед. наук. – Москва: МГПУ, 1992. – 420 с.; Душалиев К., Лузанова Е. Кыргызское народное музыкальное творчество. Учеб. пособие. Под ред. Е.В.Назайкинкого. – Бишкек: Илим, 1999. – 341 с.; Горлинский В.И. Музыкальное образование как процесс: реалии времени, тенденции, прогнозы, перспективы: Дисс. ... док. пед. наук. – Москва: МГПУ, 2003. – 343 с.; Гуллыев Ш. Туркменская музыка: Автореф. дис. ... док. искуc. – Ташкент: Инс-т. Искусс. им.Х.Х.Ниязи, 1998. – 37 с.; Кокумбаева Б.Д. Семейно-обрядов плачи казахов и лирические песни темы утреты: Автореф. дис. ... канд. искуc. – Ташкент: Узбекистан, 1989. – 47 с.; Леднев В.С. Содержание образования: сущност и содержание структура, переспективы. – Москва: Высшая школа, 1991.; Лизанец И.А. Совершенствование профессиональных компетенций педагога-музыканта в контексте интеграции искусств: Дисс. ... канд. наук. – Москва: МГУ, 2015. – 201 с. Моисеева М.В. Компьютерные телекоммуникации в системе повышения квалификации учителей средних школ: Дисс. ... канд. пед. наук. – Москва: МГУ, 1997. – 250 с.; Низамов А.Н. Суфизм в контексте музыкальной культуре народов Центральной Азии: Автореф. дис. ... док. искуc. – Ташкент: АН РУз, 1998. – 38 с.; Полозов С.П. Обучающие компьютерные технологий и музыкальное образование. Монография – Саратов: «Сарат», 2002.; Терентьева Н.А. История и теория музыкальной педагогики и образования. Учебное пособия. В 2-х ч. СПб. – Москва: Академия, 1994. – 333 с.; Васильева Н.В. Формирование музыкально-исполнительской компетентности будущего учителя музыки: Дисс. ... канд. пед. наук. – Челябинск: Магнитагорск, 2007. – 166 с.; Харионовская М.В. Совершенствование процесса повышения квалификации педагогов-музыкантов: на материале работы современных образовательных учреждений повышения квалификации: Дисс. ... кан. пед. наук. – Москва: МПГУ, 2008. – 184 с.; Хотенцев А.А. Формирование профессиональной компетентности музыканта-исполнителя в процессе обучения игре на различных видах кларнета: Дисс. ... канд. пед. наук. – Москва: МГУКИ, 2007. – 166 с.; Ермакбаев А.А. Профессиональная подготовка учителя музыки Казахстана на основе интегративного подхода: Дисс. ... канд. наук. – Саратов: СГУ, 2021. – 166 с.; Заливадный М.С. Теоретические проблемы компьютеризации музыкальной деятельности: Опыт комплексной характеристики: Дисс. ... канд. искуc. – Санкт-Петербург: СПбГУ, 2003. – 271 с.

⁶ Druin Allison and Solomon Cynthia. Designing Multimedia Environment for children. – New York: John Wiley & Sons, Ink., 1996. – 164 p.; Burrows Terry. Total Keyboard. The complete guide to playing, performing and recording on the piano and all types of electronic keyboards. Barnes & Noble Books. – New York, 2000. – 192 p.; Dean, R.T. The Oxford handbook of computer music. Oxford University Press. 2009. – 48 p.; Dowsett Janet. Keyboard Basics. Music Maker multimedia. London College of Music and Yamaha Music Foundation. – London, 1993. – 194 p.; Doornbusch, Paul (2009). "Chapter 3: Early Hardware and Early Ideas in Computer Music: Their Development and Their Current Forms". In Dean, R. T. (ed.). The Oxford handbook of computer music. Oxford University Press. – pp. 44-80.; Drecksler J., Harle Q. 1000 Tips fur Keyboards. Voggenreiter Verlag BonnBad Godesberg. 1987. – 264 p.; Gorges Peter / Merck Alex. Keyb. MIDI. Homerecording. Alles über Equipment und Anwendungen. GC Gunther Carstensen Verlag. 1997. – 513 p.; Langhorst T. Methode voor Keyboard. Deel 1, 2. De Haske Musik Publishers Ltd. Copyright. 1992. – 98 p.; Haines Nicholas. Composing at the Electronic Keyboard. Cambrige University Press, 1996. Book 1. – 40 p., Book 2. – 48 p.; Peters G.D. Computer Technology in Instrumental Music Instruction // The Instrumentalist. 1983. Vol. 37 (February). – P. 35-37.; Rollin W., Thaler A. Synthi Midi Sampling. Voggenreiter Verlag Bonn-Bad Godesberg. 1988. – P. 136.; Choksy Lois, Abramson Robert M., Gillespie Avon E., Woods David, York Frank. Teaching Music in the Twenty-First Century. Prentice-Hall, Inc., New Jersey-2001. – 342 p.

va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompyuter dasturlari vositasida kasbiy malakalarini takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kompyuter dasturlari yordamida musiqa-ijodiy samaradorlik va barqaror o'zaro aloqani ta'minlash uchun prakseologik tamoyillar va amaliy vositalar ishlab chiqish;

cholg'u va xonandalik asarlarini nota muharriri dasturida transkripsiya qilish orqali o'qituvchining reflektiv mexanizmlarini rivojlantirish hamda uning individual ta'lim yo'nalishi va musiqa terapiyasini aniqlashtirish;

kompyuter dasturlari yordamida musiqa o'qituvchilarining kreativ tendensiyalarini pedagogik va psixologik xususiyatlarga moslashtirish, ijodkorlikni kollaborativ diagnostika orqali aniqlab, metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompyuter dasturlari vositasida kasbiy malakalarini takomillashtirish modelini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompyuter dasturlari vositasida kasbiy malakalarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Termiz davlat pedagogika instituti, Andijon davlat pedagogika instituti, Xalqaro Nordik universitetlarining 438 nafar respondent-talabalari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompyuter dasturlari vositasida kasbiy malakalarini takomillashtirishning shakl, usul, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda muammoga oid qiyosiy o'rganish va tanqidiy tahlil qilish, suhbat, kuzatish, test o'tkazish, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov, psixo-diagnostika, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompyuter dasturlari vositasida kasbiy malakalarini takomillashtirishning musiqiy-ijodiy faoliyat samaradorligi kompyuter dasturlari vositasida o'zaro qayta aloqaga kirishish barqarorligi yuqori darajasi doimiyligini ta'minlashning prakseologik uzviyligini aniqlash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompyuter dasturlari vositasida kasbiy malakalarini takomillashtirishda singdirilgan reflektiv mexanizmlari cholg'u va xonandalik asarlarini nota muharriri dasturlarida nota matniga tushurishning individual ta'lim trayektoriyasini va faol musiqiy terapiyani barqaror qo'llash asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompyuter dasturlari vositasida kasbiy malakalarini takomillashtirishning modeli kreativ tendensiyalar sifatlarini pedagogik muhit va individual-psixologik xususiyatlariga reflektiv moslashtirish hamda ularning

ijodkorlik darajasining diagnostik strategiyasi kollektivligini refleksiv ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompyuter dasturlari vositasida bosqichma-bosqich takomillashtirishligini ierarxik tartibda tuzilgan diagnostik o'quv maqsadlari orqali nazariy-empirik jihatdan isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompyuter dasturlari vositasida kasbiy malakalarini takomillashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

pedagogika sohasi musiqa ta'limi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari hisoblangan bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompyuter dasturlari vositasida kasbiy malakalarini takomillashtirish bo'yicha elektron axborot ta'lim resurslari yaratilgan va ta'lim jarayoniga tadbiiq etilgan;

tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan 2 qismdan iborat "Sibelius 8.0 nota muharriri dasturida ishlash metodikasi" nomli o'quv-uslubiy qo'llanmani yaratishda foydalanilgan;

kompyuter dasturlari vositasida kasbiy malakalarini takomillashtirishning modeli kreativ tendensiyalar sifatlarini pedagogik muhit va individual-psixologik xususiyatlariga refleksiv moslashtirish hamda ularning ijodkorlik darajasining diagnostik strategiyasi kollektivligini refleksiv ta'minlash asosida takomillashtirilgan takliflar negizida "Notalashtirish" o'quv qo'llanmasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo'llanilgan yondashuvlar, usullarning ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy, tarixiy manbaalardan va amaliy-tajribalardan olinganligi, keltirib o'tilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar, mezon va darajalarni aniqlash vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda ta'lim tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompyuter dasturlari yordamida kasbiy malakalarini takomillashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish, ta'lim va kasbiy muammolarni hal etishda raqamli texnologiya va vositalarni o'zlashtirish qobiliyati, pedagogik shartlarni inobatga olgan holda tashkiliy-funksional, texnologik hamda ishlash-baholash bloklarining hamkorlik faoliyati asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etiadi. Shuningdek, musiqa ta'limi bakalavriat yo'nalishi talabalari o'zini o'zi rivojlantirish maqsadida kompyuter nota muharriri dasturlaridan foydalangan holda o'quv mahsulotlarini yaratish, musiqa asarlarini notalashtirish, tovushni yaratish va qayta ishlash dasturlari orqali kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash, pedagogik qobiliyatlari tufayli kasbiy faoliyat doirasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, kompyuter dasturlari orqali bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirishga oid diagnostika natijalari oliy ta'lim muassasalari, musiqa san'ati va musiqa ta'limi bakalavriat yo'nalishi talabalari hamda soha professor-o'qituvchilari uchun amaliy qo'llanma vazifasini o'taydi. Talabalarning kasbiy malakalarini oshirish bo'yicha

tavsiyalar oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak musiqa o'qituvchi kadrlarini tayyorlashda foydalanishga yo'naltirilgan va ishlab chiqilgan "Notalashtirish" hamda "Notalashtirish va kompyuter dasturlarida ishlash" fanlari bo'yicha o'quv-uslubiy majmua, o'quv dasturi, sillabus va baholash vositalaridan joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarda hamda shunga o'xshash dastur va materiallar yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompyuter dasturlari vositasida kasbiy malakalarini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompyuter dasturlari vositasida kasbiy malakalarini takomillashtirishning musiqiy-ijodiy faoliyat samaradorligi kompyuter dasturlari vositasida o'zaro qayta aloqaga kirishish barqarorligi yuqori darajasi doimiyligini ta'minlashning prakseologik uzviyligini aniqlash asosida takomillashtirishga oid xulosa va takliflardan "Sibelius 8.0 nota muharriri dasturida ishlash metodikasi" elektron axborot ta'lim resursini yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 11-apreldagi 02-11-17-1215-son dalolatnomasi). Natijada, talabalarda kasbiy musiqiy malakalarini takomillashtirish jarayonining pedagogik imkoniyatlaridan foydalanish va amaliyotda qo'llash imkoniyatlari oshirilgan;

bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompyuter dasturlari vositasida kasbiy malakalarini takomillashtirishda singdirilgan reflektiv mexanizmlari cholg'u va xonandalik asarlarini nota muharriri dasturlarida nota matniga tushurishning individual ta'lim trayektoriyasini va faol musiqiy terapiyani barqaror qo'llash asosida aniqlashtirilgan takliflar bo'yicha "Нотирование" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining 2025-yil 12-martdagi 01-04/15-61-son dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kompyuter dasturlari vositasida kasbiy malakalarini individual takomillashtirishga erishilgan;

bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompyuter dasturlari vositasida kasbiy malakalarini takomillashtirishning modeli kreativ tendensiyalar sifatlarini pedagogik muhit va individual-psixologik xususiyatlariga reflektiv moslashtirish hamda ularning ijodkorlik darajasining diagnostik strategiyasi kollektivligini reflektiv ta'minlash asosida takomillashtirilgan takliflar negizida "Notalashtirish" o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 22-yanvardagi 02/01-01-28-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompyuter dasturlari vositasida kasbiy malakalarini takomillashtirishga oid eksperimental taqqoslash va uning samaradorligini aniqlash imkoniyati yaratilgan;

bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompyuter dasturlari vositasida bosqichma-bosqich takomillashtirishligini ierarxik tartibda tuzilgan diagnostik o'quv maqsadlari orqali nazariy-empirik jihatdan isbotlangan takliflar asosida "Нотирование" o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil

22-yanvardagi 02/01-01-28-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarda kompyuter dasturlari vositasida nota muharriri dasturida ishlash malakalarini takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilingani. Dissertatsiya bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta, shundan xorijiy jurnallarda 4 ta maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 143 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliliigi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Kompyuter dasturlari vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirish metodikasining nazariy asoslari**" deb nomlanib, uch paragrafdan iborat. Birinchi paragrafda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kompyuter dasturlari vositasida kasbiy malakalarini takomillashtirishning pedagogik zarurati ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Ikkinchi paragrafda kasbiy malakalarni takomillashtirishda kompyuter dasturlarining didaktik va funksional imkoniyatlari tahlil qilingan. Uchinchi paragrafda esa kompyuter dasturlari vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirishning tarkibiy komponentlari aniqlanib, ularning mazmun-mohiyati yoritilgan.

O'zbekiston ta'lim sohasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda o'quv jarayonining tashkiliy-mazmun sohasiga innovatsiyalarni joriy etishda kompyuter dasturlaridan foydalanishning samarali usullarini izlab topishdan iboratdir.

Milliy ta'lim dasturining eng yaxshi an'alarini saqlab, ta'lim tizimini takomillashtirish, innovatsion ta'lim texnologiyalardan foydalanish, musiqa ta'limini o'qitishda ilog'or kompyuter dasturlaridan unumli foydalanishni taqazo etadi.

Pedagogik amaliyotda kompyuter dasturlari keng qo'llanilsa-da, musiqa ta'limida ularning imkoniyatlari yetarli darajada safarbar etilmayapti. Bunga musiqiy ijodning jonli ijro va real-vaqt ovozga bog'liq tabiati sabab bo'lsa-da, raqamli cholg'u vositalari, multimedia kontent va global tarmoq resurslari, shuningdek maxsus audio

muharrirlar, sekvenserlar hamda raqamli audio stansiyalar asosida yuqori sifatli nota materiallarini yaratish imkoniyatlari tobora kengaymoqda. Natijada, kompyuter musiqa dasturlari yordamida musiqa matnlarining shaxsiy kutubxonasini shakllantirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy malakalarini takomillashtirish muammosini o'rganuvchi tadqiqotchilar uning murakkab, ko'p qirrali xususiyatlarini qayd etadilar. Musiqa ta'limni kompyuterlashtirishning nazariy muammolari bir qator olimlar (M.S.Zalivadniy); kompyuter dasturlari resurslari tipologiyasi (R.V.Bochkova, G.M.Kiselev); o'quv jarayonida turli kompyuter vositalaridan foydalanish (I.V.Robert); bo'lajak musiqa o'qituvchisining dasturiy ta'minot va ovoz bilan ishlash mahalliy olimlar (U.Y.Yuldoshev); elektron resurslardan professional foydalanish (M.E.Mamarajabov); bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish (Q.B.Panjiyev), musiqa ta'limi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarini musiqiy-estetik tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari va usullari (N.S.Qiyamov); talabalarda art-pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalanish mexanizmlari (Sh.Mustafojev) tadqiqotlarida chuqur tahlil etilgan.

Kompyuter dasturlariga asoslangan bunday yondashuv musiqa ta'limi mazmunining ustuvor jihatlarini belgilab, kasbiy, ijodiy va amaliy faoliyatga hamda o'zini-o'zi rivojlantirishga qodir bo'lgan bo'lajak malakali musiqa o'qituvchilarini tayyorlashga yo'naltirilgan. Mazkur yondashuv O'zbekiston musiqa ta'limi tizimining ijtimoiy buyurtmasi sifatida ta'lim mazmuni va uning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi.


Tadqiqotning tayanch tushunchalari hisoblangan "kasbiy faoliyat"; "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari malakalari", "Musiqiy ta'lim", "Kompyuter dasturlari" tavsiflari hamda ushbu mutaxassislik talabalarining kompyuter musiqa dasturlari vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish mohiyati va tamoyillarining ta'riflarini keltirib o'tishni taqazo etadi.

V.V.Krayevskiy "kasbiy faoliyat"ni musiqa o'qituvchisining sohada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib, samarali ishlashi deb biladi. Q.B.Panjiyev uni cholg'u ijrochiligi, xonandalik va musiqiy-nazariy savodxonlikka ajratadi. Tadqiqotlar bu uch yo'nalishni kompyuter dasturlari yordamida rivojlantirishni taklif qiladi: cholg'u mahorati, zamonaviy xonandalik va nazariy bilimlar. Bunga "asosiy vakolatlar"ga asoslangan ta'lim yordam beradi.

Kompyuter musiqa dasturlari bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy malakasini chuqurlashtirishning muhim omili hisoblanadi. Musiqiy ta'lim mazmuni va vakolatlari tahlili ushbu jarayon bilim, g'oya, faoliyat algoritmlari hamda qadriyat-munosabatlar tizimini faollashtirib, ularni amaliy kasbiy faoliyatga yo'naltirishini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari talabalarining ijtimoiy va professional rivojida kompyuter musiqa dasturlarini egallash, axborot bilan ishlash, multimedia vositalaridan foydalanish hamda kompyuter va internet savodxonligi muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, "kompyuter dasturlari" atamasining semantikasi uning turli tomonlarini: funkcionallik, faoliyat, kompyuter texnologiyalari, ijtimoiy va

shaxsiy jihatlari, shuningdek, bevosita axborot texnologiyalari bilan aloqadorligi hamda ularni o‘qitishda nota muharrir dastularidan umumli foydalanish lozimligi bilan izohlanadi. Shuning uchun ushbu atamani har tomonlama zamonaviy pedagogika fani nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish lozimligi muhim deb hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Kompyuter dasturlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirishga kasbiy yondashuvlar

Umuman olganda “kompyuter dasturlari” atamasining mohiyati va mazmunini quyida keltirilgan:

“Kompyuter dasturlari” atamalarining leksikografik talqini 1) dastur bilan ishlash malakasiga ega bo‘lish; 2) biror narsa bo‘yicha qaror qilish imkonini beradigan bilimga egalik”; va 3) kasbiy malakaga ega bo‘lish; 4) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha etarlicha bilim, ko‘nikma va kasbiy kompetensiyalarni egallaganligi.

Tadqiqotni o‘rganish, tahlili qilish barobarida kasbiy tayyorgarlikni to‘rtta asosga ko‘ra tasniflashni maqsadga muvofiq deb hisobladik: 1) kasbiy tayyorgarlikkga ega bo‘lish (bilim, qobiliyat, malaka) va o‘z amaliy faoliyatini modellashtirish qobiliyati nuqtayi nazaridan; 2) jamiyatda hamkorlik va o‘z ishiga mas’uliyat nuqtayi nazaridan; 3) shaxsiy o‘shish jihati (o‘zini namoyon qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish); 4) bu erda shaxsiy o‘shish jihati va individual kompetensiyani ajratib ko‘rsatadi, bu esa u bilan shaxsning kasbiy doirada rivojlanishi orqali o‘zini o‘zi anglash va o‘zini o‘zi tartibga solish sifatida tavsiflanadi.

Shuningdek, Kompyuter dasturlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirishida kasbiy faoliyat turlarini aniqladik: 1) Musiqiy va ijrochilik faoliyati; 2) Refleksiv faoliyat; 3) Konstruktiv faoliyat; 4) Musiqiy ijodkorlik.

Bu xususiyatga xos bo‘lgan emotsional xissiy-irodaviy kompetensiya bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining o‘zi ishtiyoqi orqali musiqaga qiziqishini oshiradi. Shu bilan birga, badiiy mahoratda uchta komponent ajralib turdi. Bular: psixofiziologik (aqliy jarayonlar – tasavvur, xotira, iroda, shuningdek, ovoz tembri, diksiya, yuz ifodalari); hissiy va estetik (bo‘lajak musiqa o‘qituvchichining hissiy tajribasi); badiiy va

mantiqiy (auditoriyada badiiy va kommunikativ faoliyat tizimini amalga oshirish qobiliyati).

Ijodkorlik noan'anaviy tafakkur, yangi narsa yaratish sifatida musiqa ta'limi mazmunida va musiqa ta'limi jarayonini ta'lim usullari va shakllari orqali amalga oshirishda namoyon bo'lishi mumkin.

Kompyuter dasturlari vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirish uchun "Sibelius 8.0 nota muharriri" dasturi tanlab olindi. Kompyuter dasturlari vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining faoliyati o'quv fanlarining mazmunini ishlab chiqish va istiqbolliligini qo'llash tajribasini hisobga olishni talab qiladi, masalan, Respublika Oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlari musiqa ta'limi sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasida "Musiqa matnini kompyuterda qayta ishlash", "Xalq qo'shiqlarini elektron tartibga solish", "Bolalar qo'shiqlarini kompyuterda qayta ishlash", "Kompyuter musiqiy savodxonligi va aranjirovkasi", "Notalashtirish va kompyuter dasturlarida ishlash", "Notalashtirish" va boshqa shu kabi fanlarda "Sibelius 8.0 nota muharriri" dasturidan keng foydalangan holda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining mutaxassislarini kasbiy malakalarini takomillashtirish tadqiqot ishining asosiy g'oyasi sifatida e'tirof etiladi.


Tadqiqot mazmuni uchun muhim bo'lgan "kompyuter nota muharriri dasturlari" atamasi odatda ovoz yozish uskunalari yordamida yaratilgan musiqani ifodalash bilan bog'liq bo'lib, asosan texnik jihatlarni aks ettiradi. Biroq kompozitsiya jarayoni tovush chastotasi, tembri va intensivligi spektrlari asosida tovush komplekslarini yaratish va boshqarishni nazarda tutadi. Shu bois kompyuter nota muharriri muallifning musiqiy g'oyasini tovush shaklida yaratish va uni boshqarishga xizmat qiluvchi ijodiy vosita sifatida tavsiflanadi. Mazkur konsepsiyani tadqiq qilishda "Sibelius 8.0" dasturining imkoniyatlari alohida ahamiyatga ega: u ritmik tuzilma, o'lchov va dinamik parametrlar bo'yicha asarni yozish va real vaqt rejimida tinglashni oldingi versiyalar "Sibelius 1.0–7.0" ga nisbatan sezilarli darajada kengaytirgan. Demak, kengaytirilgan funksiyalar kompozitorlar hamda foydalanuvchilarga nafaqat nota yozuvini aniq aks ettirish, balki uning akustik natijasini tahlil qilish imkonini ham beradi.

Tadqiqotda axborot-ta'lim resurslari tarkibi aniqlashtirilib, ular dasturiy ta'minot va axborot mahsulotlari, elektron lug'at va ma'lumotnomalar, ensiklopediyalar, o'quv qo'llanmalar va darsliklar, axborot-qidiruv va ekspert tizimlari, o'qitish va nazorat tizimlari, amaliy mashg'ulot vositalari, kasbiy adabiyotlar, simulyator va repetitorlar, o'quv kurslari va laboratoriya mashg'ulotlari, kompyuterli musiqiy o'yinlar, shuningdek, internetga asoslangan ixtisoslashtirilgan resurslar, virtual kutubxonalar, qidiruv tizimlari, kataloglar va axborot tarqatish xizmatlarini o'z ichiga olishi asoslangan.

Dissertatsiyada kompyuter texnologiyalarini sezilarli darajada soddalashtirish va standartlashtirish vositasi bo'lgan "Windows/Macintosh" operatsion tizimiga e'tibor qaratish lozim deb hisoblanadi. Shuningdek, ushbu dasturlarni ko'rib chiqqan holda ulardan ayrimlarini tavsiya qilinadi: "Audacity Audio-MIDI ko'p kanalli audio muharriri, Ardor ko'p kanalli tahrirlash stansiyasi, Vodorod (Hydrogen) virtual baraban mashinasi, Linux Music Score nota muharriri, Linux Multimedia Studio

audio MIDI sequencer, MusE interaxborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Rosengarden audio MIDI sequencer, audio-MIDI sequencer REAPER (WINE)”.

Kompyuter dasturlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirishda “Musika ta’limi” bakalavrait ta’limi dasturi talabalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari malakalari tarkibiy qismlarining mazmunini hamda ularning komponentlardan foydalanildi (2-rasm).



2-rasm. Kompyuter dasturlari vositasidagi tarkibiy qismlar

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Kompyuter dasturlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirish metodlari”** deb nomlanib, uch paragrafdan iborat. Birinchi paragrafda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirishda tizimli yondashuvlarning nazariy-metodik asoslari tahlil qilingan. Ikkinchi paragrafda kompyuter dasturlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirish metodlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Uchinchi paragrafda esa kompyuter dasturlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirish modeli ishlab chiqilib, uning tuzilmasi, mazmuni va tarkibiy komponentlari yoritilgan.

Barcha pedagogik tizimlarga xos bo‘lgan “egiluvchanlik, dinamizm, o‘zgaruvchanlik, moslashuvchanlik, barqarorlik, bashorat qilish, uzluksizlik, yaxlitlik” tamoyillari aniqlangan. Tadqiqot nuqtayi nazaridan, tizimli yondashuv shaxsning o‘ziga xosligini tan olish, uning ma’naviy va ijodiy asoslarini mustaqil rivojlantirish hamda buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni ta’minlashi asoslangan.

Tadqiqot ishida asosan mualliflik metodikalardan foydalanildi. Jumladan, “Eshitish-taqlid usuli metodikasi”, “Asosiy tayanch tonni aniqlash” hamda “Tovushlarni past-balandligini his etish” tadqiqot ishida ishlab chiqilgan metodika hisoblanib, uning afzalliklari shundaki – o‘qitish tizimida ular yetakchi rol o‘ynaydi, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining eshitish qobiliyati va musiqiy xotirani rivojlantirishga yordam beradi. Balki xuddi ana shu metodning xalq musiqa pedagogikasida keng qo‘llash asosida kompyuter dasturlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarning kasbiy malakalarini takomillashtirish muammosi bir qator hal etildi.

Kompyuter dasturlari vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirish jarayonida "Encore", "Finale", "Cubase Score", "Personal Composer", "Musicator", "Gitar-pro", "Akkord" va boshqalar kabi nota tahrirlovchi dasturlarni o'z ichiga olgan musiqiy matnlar to'plamlari bilan ishlash uchun juda katta dasturiy ta'minotdan foydalanildi. Shu munosabat bilan, ishlab chiquvchilar taqdim etadigan asosiy dasturiy paketlarni ko'rib chiqish va taqqoslash mumkinligi aniqlandi.



3-rasm. Sibelius 8.0 nota muharriri oynasi (interfeysi)

Nota terishda asosan "Finale" keng qo'llanadi, tez ommalashayotgan muqobil dastur esa "Sibelius"dir (3-rasm). Bundan tashqari, "Encore", "Score for DOS" hamda Linux-asosli "TeX" muharriri mavjud. "TeX" musiqiy informatika mutaxassislariga mo'ljallangan bo'lib, konsol rejimida formulalar bilan terish, maxsus ko'rish oynasida oldindan ko'rish hamda o'lchamli shrift va maxsus belgilar yaratish imkonini taqdim etadi.

Yuqoridagi 3-rasmda Sibelius 8.0 nota muharriri oynasi ko'rsatilgan. Unda tasma va boshqa foydali boshqaruv elementlari oynaning yuqori va pastki qismining qayerida joylashganligini ko'rish mumkin.

Mavjud kalitlar Sibelius tasma qatoridan Notalar – Kalit yorlig'ini bosish orqali mavjud kalitlar ro'yxati ko'rsatilgan (har bir kalit C (do) notasini ko'rsatadi):

Kalit belgilarini yaratish uchun sibelius tasma qatoridan Notalar – Kalit belgilari yorlig'ini yoki klaviaturadan "K" tugmasini bosish orqali ko'rsatilgan kalit belgilardan ixtiyoriy ravishda major yoki minor tonalligi tanlanadi (major va minor tonalliklar o'rtasidagi farqni sibelius asosan MIDI-dan kiritilgan kalit belgilarini

qanday qo‘yilishini avtomat bajaradi. Masalan, A minorada Eb o‘rniga $D\#$ ni, C majorda $D\#$ o‘rniga Eb ni qo‘yadi.)

Sibelius dasturi nota yoki pauza tanlanganda kalit belgilarni avtomatik joylashtiradi. Tonallik o‘zgarishlari fragmentlar orasida qo‘llanilganda, u ixtiyoriy o‘chiriladigan ikki takt chizig‘idan oldin joylashadi. Bir necha taktdagi tonallik o‘zgarishi uchun yangi kalit belgisi qo‘yilib, keyin asl tonallik avtomatik tiklanadi.

Avvaldan mavjud bo‘gan partitura boshiga yangi tonallikni qo‘yish uchun hech qanday nota, pauza va taktlar belgilanmagan holda Sibelius tasma qatoridan Notalar – Kalit belgilari yorlig‘ini yoki klaviaturadan “K” tugmasini bosish orqali ko‘rsatilgan kalit belgilardan ixtiyoriy ravishda major yoki minor tonalligi tanlanadi.

